XALQ DEPUTATLARI GULISTON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 26-may VII-12-65-9-130-K/25 Guliston shahar

Guliston shahrida toponimik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida

Kun tartibidagi masala deputatlar tomonidan atroflicha mihokama qilinib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari shahar kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2025-yil 25-apreldagi 05-19-6497-sonli yig‘ilish bayoni qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Guliston shahar mahallalari hududidagi 20 ta geografik obyekt (ko‘cha, berk ko‘cha, tor ko‘cha)larni nomlash yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2025-yil 25-apreldagi 05-19-6497-sonli yig‘ilish bayoni qarori bilan taklif etilgan ko‘chalarning nomlari ilovaga asosan tasdiqlansin.

3.Guliston shahar hokimi o‘rinbosari (X.Ergashev), shahar IIB boshlig‘i (B.Sanayev), shahar Adliya bo‘limi (S.Togayev), shahar Statistika bo‘limi, shahar Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Raqibov), Davlat xizmatlari markazi (S.Qudratov), Mahallalar uyushmasi shahar bo‘limi (L.Axmedov), Davlat kadastrlar palatasi shahar filiali (K.Ismoilov), shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (R.Berkinov) va tegishli mutasaddi tashkilotlarga:

mazkur qaror ilovasi asosida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar e‘tiborga olinsin va ushbu qarordan kelib chiqqan holda tegishli idoraviy hujjatlarga o‘zgartirish kiritish vazifasi yuklatilsin.

4.Shahar hokimi o‘rinbosari (X.Ergashev) va Mahallalar uyushmasi shahar bo‘limi (L.Axmedov):

- 15 kun muddatda hududlardagi nomlari o‘zgargan ko‘chalarga zamonaviy ko‘rinishdagi (lotin yozuvida) peshlavhalar va uy raqamlarini yozib o‘rnatish ishlarini tashkil etish;

- peshlavhalarni o‘rnatish va moliyalashtirish yuzasidan tegishli tashkilotlarga ko‘rsatmalar berish hamda nazoratga olish vazifalari yuklansin;

- bir hafta muddatda hududlarda yangi nomlangan ko‘chalarning nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilansin.

5.Shahar ichki ishlar boshqarmasi (B.Sanayev)ga:

shahar mahallalari hududidagi yangi nomlangan ko‘chalarda yashovchi fuqarolarga yangi fuqarolik pasportlarini berish va ularni ro‘yhatga qo‘yishda yangi nomlar bilan yozilishini nazoratga olish vazifasi yuklansin.

6. Shahar hokimligi bosh yuristkonsulti (N.Musurmonqulov) mazkur qarorni elektron jamoatchilik muhokamasiga joylashtirsin.

7.Shahar hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (Sh.Yunusov):

Hududlardagi yangi nomlangan ko‘chalarning nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarga va hokimlikning veb-saytiga ma’lumotlarni joylashtirsin.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining barcha doimiy komissiyalari zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



XODJIMANOV
JAMOLIDDIN
XUSNUDDINOVICH

Xalq deputatlari Guliston shahar
Kengashining
2025-yil 26-maydagi
VII-12-65-9-130-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Guliston shahri hududidagi 20 ta geografik obyekt (ko‘cha, berk ko‘cha, tor ko‘cha)larni nomlash to‘g‘risidagi takliflar

T/r	Geografik obektning turi	Geografik obektning bog‘lanishi	Amaldagi nomi	Respublika ekspert komissiyasi tomonidan taklif etilayotgan nom
1.	Tor ko‘cha	Ma’naviyat, Madaniyat mahallalari	Nomsiz	Amir Temur
2.	Berk ko‘cha	Navbahor mahallasi	Nomsiz	Bodomzor-3
3.	Tor ko‘cha	Do‘stlik mahallasi	Nomsiz	Cho‘lpon
4.	Berk ko‘cha	Ma’naviyat mahallasi	Nomsiz	Ezgulik-2
5.	Tor ko‘cha	Ulug‘obod mahallasi	Nomsiz	Fayzli o‘lka
6.	Tor ko‘cha	Ulug‘obod mahallasi	Nomsiz	Iqtidor
7.	Berk ko‘cha	Ibratli mahallasi	Nomsiz	Jaloliddin Manguberdi
8.	Berk ko‘cha	Ahillik mahallasi	Nomsiz	Matonat
9.	Tor ko‘cha	Do‘stlik mahallasi	Nomsiz	Mirishkorlar-1
10.	Tor ko‘cha	Do‘stlik mahallasi	Nomsiz	Mirishkorlar-2
11.	Berk ko‘cha	Namuna mahallasi	Nomsiz	O‘zbekiston
12.	Berk ko‘cha	Shodlik mahallasi	Nomsiz	Serquyosh
13.	Tor ko‘cha	Shodlik mahallasi	Nomsiz	Serquyosh
14.	Tor ko‘cha	Nihol mahallasi	Nomsiz	Sportchilar-1
15.	Tor ko‘cha	Nihol mahallasi	Nomsiz	Sportchilar-2
16.	Tor ko‘cha	Do‘stlik mahallasi	Nomsiz	Turon-1
17.	Tor ko‘cha	Do‘stlik mahallasi	Nomsiz	Turon-2
18.	Berk ko‘cha	Do‘stlik mahallasi	Nomsiz	Turon

19.	Ko‘cha	Ulug‘obod mahallasi	Farovonlik	Soflik ko‘chasi
20.	Ko‘cha	Nurafshon mahallasi	O‘rikli	Mumtoz ko‘chasi